

NORMATIV HISOB TARAQQIYOTINING RETROSPEKTIV TAHLILI VA RIVOJLANISH JARAYONLARI

Ablakul Shadmankulov
Alfraganus universiteti dotsenti, i.f.n

Annotatsiya. Maqolada normativ hisob taraqqiyotining retrospektiv tahlili va rivojlanish jarayonlari bayon etilgan. Jumladan, “Standart cost” hisob tizimini paydo bo‘lish jarayonlari, normativ hisob tamoyillari, mamlakatimiz taraqqiyotida buxgalteriya hisobini optimal yo‘lga qo‘yish ahamiyati konseptual jihatdan tahlil qilingan holda zarur xulosaga kelingan.

Kalit so‘zlar: buxgalteriya hisobi, normativ hisob, boshqaruv hisobi, moliyaviy hisob, mahsulot tannarxi, “Standart cost” hisob tizimi, xarajatlar, rejalashtirish.

Аннотация. В статье проведен ретроспективный анализ развития нормативного учета и процессов его развития. В частности, необходимые выводы сделаны на основе концептуального анализа процессов формирования системы учета «Standart cost», принципов нормативного учета, а также значения наложения оптимального учета в развитии нашей страны.

Ключевые слова: бухгалтерский учет, нормативный учет, управленческий учет, финансовый учет, себестоимость продукции, система учета «Standart cost», затраты, планирование.

Abstract: The article provides a retrospective analysis of the development of regulatory accounting and its development processes. In particular, the necessary conclusions are drawn on the basis of a conceptual analysis of the processes of formation of the “Standard cost” accounting system, the principles of normative accounting, as well as the importance of imposing optimal accounting in the development of our country.

Key words: accounting, standard accounting, management accounting, financial accounting, production cost, Standard Cost accounting system, costs, planning.

Kirish. Rivojlangan davlatlarda “Standart cost” hisob tizimi keng tarqalgan bo‘lib, ushbu tizim normativ hisob taraqqiyotining tayanch boshlanish nuqtasi bo‘lib hisoblanadi. Ishlab chiqarishning markazlashuvi va oqilona tashkil etilishi asosida bozor iqtisodiyotni rivojlanishi, an‘anaviy uslublarni, xususan, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi.

Bozor sharoitiga xarakterli bo‘lgan raqobat, kalkulyatsiya hisobining operativligini oshirishga va mahsulot tannarxini pasaytirishga imkon beradigan yangi shakl va uslublarni izlashga majbur qildi. Ana shunday izlanishlar natijasida “Standart cost” tizimi vujudga keldi. Shuni ta‘kidlash zarurki, bu tizimining boshlang‘ich g‘oyasi 1756-yilda Georg Dirpars tomonidan ko‘tarilib chiqqan [1].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. “Standart cost” tizimi taraqqiyotida

Garrington Imerson va Charter Garrisonlarning ishlari katta rol o'ynagan. G.Imerson o'zining ishlarida ishlab chiqarish xarajatlarini rejalashtirish va ularning sarflanishi ustidan nazorat o'rnatish g'oyasini ilgari surdi.

1908-yilda G.Imerson shunday deb yozgan, "xarajatlarning summasini aniqlashning, tamomila bir-biridan farq qiluvchi ikki uslubi mavjud: birinchisida xarajatlar ish bajarilgandan so'ng aniqlansa, ikkinchisida esa, ish bajarilmasdan oldin xarajatlar hisoblanadi. Ikkinchi uslubning ustunligi nafaqat xarajatlarni oldindan hisoblash bo'lib qolmay, bundan tashqari xarajatlar jadval tarzida guruhlanib, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan real xarajatlar standart xarajatlarga va bartaraf etilishi lozim bo'lgan nobudgarchiliklarga ajratib ko'rsatiladi. Xarajatlar bunday tarzda tahlil qilinishi turli xo'jasizliklarni oldini oladi" [2]. Lekin G.Imerson o'zining ishlarida "Standart cost" tizimining uslubiy va texnik masalalarini ko'rib chiqmagan.

"Standart cost" tizimining keyingi uslubiy ishlari Charter Garrison qalamiga mansub bo'lib, u 1912, 1918 va 1919-yillarda bir qancha maqolalar yozib, keyinchalik o'zlarining ishlarini "Ishlab chiqarish va sotish operativ kalkulyatsiyasi ucheti" nomli kitob qilib chop ettirgan.

Ch.Garrison yozgan: "Standart cost" tizimining asosiy maqsadi, korxona boshqaruvini yanada ko'proq foyda olishni imkoniyatini beradigan ma'lumotlar bilan ta'minlashdan iborat bo'lib, ilgari qo'llanilgan partion-buyurtmali va boshqa tizimlarga qaraganda oldinga qo'yilgan dadil qadam edi [3]. "Standart cost" tizimining tayanch nuqtasi bo'lgan standart tannarx, ishlab chiqarish anarxiyasi, qattiq raqobatlashuv va bozor baholarining davriy o'zgarishlari natijasida muntazam bir zayilda turmaydi.

Ch.Garrison ishlab chiqarish xarajatlarini oldindan rejalashtirish kerakligi haqida fikr yuritib "ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini ishlab chiqdi va xarajatlar sarflanishidagi o'zgarish va chetlanishlarni tahlil qilish g'oyasini ilgari surdi. U shunday yozadi: o'zgarmas xarajatlar miqdoridagi rejadan chetlanishlar asosan korxona ishlab chiqarish quvvatidan 100% foydalanilmaslik natijasida kelib chiqadi. Chetlanishlar oldini olish uchun esa ular sinchiklab tahlil qilinib, o'rganilishi kerak" [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Normativ hisob taraqqiyotining retrospektiv, tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy tadqiq qilish usullari qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar. "Standart cost" tizimining vujudga kelishi buxgalteriya hisobi sohasida katta yutuq bo'lib hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr buxgalteriya hisobi sohasida "Standart cost" asri bo'lib qoldi. "Standart cost" tizimining mohiyati har bir yoki bir nechta mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarini oldindan normalar yoki standartlar asosida belgilab olishdan iborat. Bu tizim eng avvalo bevosita xarajatlar sarfini nazorat qilishga qaratilgan. Korxona ma'muriyati muntazam ravishda o'rnatilgan standartlardan chetlanishlar va ularning paydo bo'lishi sabablari haqida ma'lumot bilan ta'minlanib turiladi. Bu ma'lumotlar operativ ravishda chetlanishlarni oldini olish va ularni bartaraf etish uchun

ishlatiladi. Shunday qilib “Standart cost” tizimi normativ hisob taraqqiyotining boshlang‘ich nuqtasi bo‘lib, ularning bir-biriga o‘zaro ta’siri natijasida o‘xshashliklarni ko‘rish mumkin.

Normativ hisob birinchi bo‘lib, o‘tgan asrning 20-yillarning oxirida mashinasozlik korxonalarida joriy qilinib boshladi. 30- yillarda esa u eng progressiv uslub deb tan olindi va boshqa sohalarida ham qo‘llanila boshladi. Mashinasozlik korxonalarida normativ hisob joriy qilingunga qadar qo‘llaniladigan xarajatlarni hisobga olishning va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni buyurtmali uslubi individual va mayda seriyali ishlab chiqarish sharoitida qo‘yilgan talablarga qandaydir darajada javob bergan. Lekin, mashinasozlik korxonalarini ommaviy ishlab chiqarishga aylanishi bilan buyurtmali uslub va ishlab chiqarish talablari o‘rtasida keskin nomutanosiblik aniqlanib qoldi.

Nomutanosiblik shundan iborat ediki, buyurtmali uslub mahsulot tannarxi haqida operativ ma’lumotlar bera olmas edi. Bu uslubda mahsulot tannarxi buyurtma bajarilgandan keyin aniqlanar edi. Ayrim hollarda buyurtmalarning bajarilishi 2-3 oyga ham cho‘zilib ketar edi.

Shunday qilib muntazam ravishda mahsulot tannarxini shakllanishi haqida operativ ma’lumot berib turadigan va o‘rnatilgan normativlarga rioya qilinishi ustidan nazorat olib boruvchi uslub yaratishga ehtiyoj tug‘ildi. Bu ehtiyoj talablariga normativ hisob to‘la javob bera olardi. Normativ hisobning kelib chiqishi ishlab chiqarishning murakkablashuvi va ishlab chiqarish xarajatlari ustidan nazoratni kuchaytirish bilan bog‘liq. Normativ hisob rasmiy ravishda 1953-yilda tan olindi. Sobiq SSSR Moliya vazirligi tomonidan “Ishlab chiqarish xarajatlarini uchetga olishni va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishni normativ hisobi bo‘yicha Asosiy Nizom”lar chop etildi. Nizom asosan mashinasozlik sanoati korxonalari uchun mo‘ljallanib ishlab chiqilgan edi.

Asta sekin amaliy tajribalarning to‘plana borishi va normativ hisobning boshqa uslublarga qaraganda ustunligi tan olinishi bilan u sanoatning qolgan sohalarida ham qo‘llanila boshlandi. Natijada, normativ hisobning sohalaridagi xususiyatlariga moslashgan turli variantlari vujudga kela boshladi. Shuning uchun 1960-yilda normativ hisob uslubi bo‘yicha yangilangan Asosiy nizomlar ishlab chiqildi. Bu nizomda normativ hisobning asosiy elementlarini bo‘limli va buyurtmali uslublarda ham qo‘llash tavsiya qilingan.

1970-yilda qabul qilingan “Mahsulot tannarxini rejalashtirish, hisobga olish va kalkulyatsiya qilish bo‘yicha asosiy nizomlar”da normativ hisobni progressiv uslub ekanligi tan olinib, halq xo‘jaligini barcha sohalarida uni qo‘llashga ko‘rsatmalar berilgan.

1976-yilda sobiq SSSR Moliya vazirligi №413 “Xarajatlar hisobini va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish va amaliyotini yaxshilash haqida” qoidaini e’lon qildi. Bu qoidada 30% sanoat korxonalari normativ uslubda xarajatlar hisobini yuritayotganligi ta’kidlangan. Bu davrga kelib normativ uslub xalq xo‘jaligining barcha sohalarida (qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqa) ham qo‘llanila boshladi.

1983-yilda sobiq SSSR Moliya vazirligi “Ishlab chiqarish xarajatlarini

hisobga olish va mahsulotning normativ, reja va haqiqiy tannarxini kalkulyatsiya qilishni normativ uslubini qo'llash bo'yicha Namunaviy ko'rsatmalar" chiqardi. Bu ko'rsatmalarda normativ uslubni qo'llanilishini kengaytirish bilan birgalikda uni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish masalalariga katta e'tibor qaratildi. Normativ hisobni birinchi tadqiqotchilaridan bo'lgan M.X.Jebrak 1934-35 yillardagi o'zining ishlarida normativ uslubni nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan.

M.X.Jebrak tomonidan normativ hisobni hozirgi davrda ham qo'llanilayotgan quyidagi tamoyillari ishlab chiqilgan:

- hisobot davrining boshida (oy, chorak) mahsulot birligini normativ tannarxini hisoblash;
- qo'llanilayotgan, joriy normalardan va xarajatlar smetasidan chetlanishlarni aniqlash;
- tanarxda o'z aksini topadigan xarajatlar normasidagi o'zgarishlarni aniqlash [5].

M.X.Jebrak normativ hisobning yuqorida keltirilgan tamoyillari asosida mahsulotning haqiqiy tannarxini hisobot davrining boshidagi bir mahsulot birligini normativ tannarxiga normalardan chetlanishlar va o'zgarishlar summasini qo'shib yoki ayirib aniqlashni tavsiya etgan.

Ishlab chiqarish sharoitlarini va boshqaruv talablarini o'zgarishi normativ hisobni nazariy va amaliy jihatdan yanada takomillashtirishni talab qildi. Bu ishlarni amalga oshirishda A.A.Aksenenko, I.A.Basmanov, P.S.Bezrukix, B.I.Valuyev, N.V.Dempinskiy, V.B.Ivashkevich, V.F.Paliy, S.K.Qodirxonov, A.N.Kashayev, I.A.Lamikin, P.P.Novichenko, A.D.Sheremet, A.A.Shpig, S.A.Shenkov va boshqa olimlar izlarishlar olib borishdi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasining rivojlanishi bozor munosabatlarini to'liq shakllanishiga bog'liq. Mamlakatimiz taraqqiyotida buxgalteriya hisobini to'g'ri yo'lga qo'yish katta ahamiyatga ega.

Xulosa. Buxgalteriya hisobining vazifasi sifatida normativ hisobni joriy etish hisoblanadi. Shuningdek, buxgalteriya hisobining bosh vazifalari quyidagilar:

mol-mulklarning butligi va harakati, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni o'rnatilgan norma, normativ va smetalarga muvofiq ravishda ishlatish ustidan nazoratni ta'minlash;

moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi negativ hodisalarni o'z vaqtida ogohlantirish, ichki xo'jalik rezervlarini aniqlash va jalb qilish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida normativ hisob yangicha mohiyat kashf etdi. Chunki boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimida rahbar xodimlar operativ hisob ma'lumotlariga yetarli e'tibor bermas edi. Ularning fikricha normalardan chetlanishlarning sabablarini tahlil qilish tegishli bo'limlarning funksiyalari deb hisoblanadi. Bundan tashqari mulkning umumxalq eganligi ham rahbarlarning jon kuydirib, ma'lumolarni tezkor tahlil qilishga qiziqish uyg'otmagan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulkchilikni tarkibi o'zgardi va davlat mulki, mulk turlaridan biriga aylanadi. Bir qancha yangi shakldagi mulk egalari paydo

bo'ldi va o'z mulklarini samarali ishlatib, yaxshi natijalarga erishishdan manfaatdor bo'ldi.

Korxonalarning rahbarlari raqobat kurashida, ijobiy moliyaviy natijalarga erishishni ta'minlaydigan boshqarish usullarini izlashga majbur bo'ldi. Bu maqsadda ular bozor konyunkturasini o'rgandi, o'z faoliyatini mustaqil rejalashtirdi, tovar yetkazib beruvchilar va xaridorlarni izladi.

Byudjet va davlat tomonidan moliyalashtirishning keskin qisqarishi natijasida korxonalar xaridor va bozor uchun raqobatlashuvdan tashqari tijorat banklarini kredit resurslarini qo'lga kiritish uchun ham raqobatlashdilar.

Natijada, korxonada, bir tomondan to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning natijalarini baholash uchun to'liq va o'z vaqtida yetarli axborotlar bo'lishiga ehtiyoj tug'ildi. Bunday axborotlar rivojlangan mamlakatlarda boshqaruv hisobi ma'lumotlaridan olinadi. Normativ hisob boshqaruv hisobning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, korxona, bank, soliq va boshqa idoralarga tegishli ma'lumolarni taqdim etilishi kerak. Bu axborotlar moliyaviy hisob ma'lumolaridan olinishi lozim. Shunday qilib, buxgalteriya hisobi bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki (moliyaviy, boshqaruv) qismga bo'lindi.

Mamlakatimizda bozor munosabatlarini chuqurlashuvi va korxonalararo raqbatlashuvni keskinlashuvi boshqaruv hisobiga bo'lgan talablarni kuchaytiradi va uni yanada takomillashuviga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Bazanov V.F. Нормативный учет производства. М.1933, 63 bet.
2. Boyarn G.A. "Standart cost". Вестник СТБЕ, 1930, №5.
3. Garrison Ch.D. "Standart cost". Спесконтора. Оргучет. 1935.
4. Garrison Ch.D. Учет себестоимости. СУН ХУ. Госплана СССР – в/о союзторг учет. М. 1939-у. 51 bet.
5. Jebrak M.X. Промышленный учет (начальный курс. М.Госпланиздат 1949-у. 273 bet)
6. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" Qonuni.
7. Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlar aylanishi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirining buyrug'i, 30.07.2024-yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3538.
8. Isroilov B.I. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. T.: 2020.
9. Xasanov B.A., Xashimov A.A., Pardayeva Z.A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. O'quv qo'llanma. T.: Yangi nashr, 2011.